INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.4 №11 (2026). NOVEMBER
innovativepublication.uz

# REFORMING PARLIAMENTARY IMMUNITY: PRESERVING POLITICAL IMMUNITY AND LIMITING PROCEDURAL IMMUNITY

**Yunusova Mohlaroy Qudratjon qizi**

Master's Student, Tashkent State University of Law

# DEPUTAT DAXLSIZLIGINI ISLOH QILISH: SIYOSIY IMMUNITETNI SAQLASH VA PROTSESSUAL DAXLSIZLIKNI CHEGARALASH MASALALARI

**Yunusova Mohlaroy Qudratjon qizi**
*Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** Maqolada deputat daxlsizligi institutining konstitutsiyaviy-huquqiy tabiati ikki tarkibiy qism, ya'ni siyosiy immunitet (non-liability) va protsessual daxlsizlik (inviolability) doirasida tahlil qilinadi. Mahalliy Kengashlar deputatlarining maqomi to'g'risidagi qonun, Jinoyat-protsessual kodeksi va 2026-yil oktabrda qabul qilingan qonun normalari xorijiy tajriba bilan solishtirilib, amaldagi tartibning tenglik tamoyili, korrupsion xavf hamda javobgarlikning kechikishi nuqtai nazaridan muammoli jihatlari ko'rsatiladi. Muallif siyosiy immunitetni saqlash, protsessual daxlsizlikni aniq va tor doirada qoldirish hamda immunitetni yechish tartibini muddatli, asoslangan va tekshiriladigan qilish takliflarini asoslaydi.
**Kalit so'zlar:** deputat daxlsizligi, siyosiy immunitet, protsessual daxlsizlik, immunitetni yechish, qonun oldida tenglik, hokimiyatlar bo'linishi, parlament huquqi.
**Аннотация.** В статье конституционно-правовая природа депутатской неприкосновенности анализируется через два её элемента: политический иммунитет (non-liability) и процессуальную неприкосновенность (inviolability). Нормы закона о статусе депутатов местных Кенгашей, Уголовно-процессуального кодекса и закона, принятого в октябре 2026 года, сопоставляются с зарубежным опытом, выявляются проблемы действующего порядка с точки зрения равенства перед законом, коррупционных рисков и затягивания ответственности. Автор обосновывает предложения по сохранению политического иммунитета, сужению процессуальной неприкосновенности и совершенствованию процедуры снятия иммунитета.
**Ключевые слова:** депутатская неприкосновенность, политический иммунитет,

процессуальная неприкосновенность, снятие иммунитета, равенство перед законом, разделение властей, парламентское право.

**Abstract.** The article analyses the constitutional nature of parliamentary inviolability through its two components: political immunity (non-liability) and procedural inviolability. The provisions of the law on the status of local council deputies, the Criminal Procedure Code and the law adopted in October 2026 are compared with foreign practice to show the weaknesses of the current regime in terms of equality before the law, corruption risks and delayed accountability. The author argues for preserving political immunity,
narrowing procedural inviolability and making the procedure for lifting immunity time-bound, reasoned and open to review.

**Keywords:** parliamentary inviolability, political immunity, procedural inviolability, lifting of immunity, equality before the law, separation of powers, parliamentary law.

## KIRISH

Deputat daxlsizligi haqida gap ketganda, ko‘pchilik uni imtiyoz deb o‘ylaydi: deputatni ushlab bo‘lmaydi, javobgarlikka tortib bo‘lmaydi. Huquqshunos esa boshqacha so‘raydi: aslida nimani himoya qilyapmiz? Doktrinada bu savolga deyarli bir xil javob beriladi. Daxlsizlik deputatning shaxsini emas, u egallab turgan mandatni, ya’ni saylovchilar ishonchini himoya qiladi[1]. Gap shundaki, nazariyada bu aniq ko‘rinsa ham, amalda mandat bilan shaxs bir odamning ichida yashaydi va ularni bir-biridan ajratish oson emas.

Institutning ildizlari yaxshi ma’lum. 1689-yilgi Angliya Huquqlar billining 9-moddasi parlamentdagi so‘z va munozaralarni hech bir sudda e’tiroz qilib bo‘lmaydigan deb belgilagan[2]. Keyinroq hokimiyatlar bo‘linishi nazariyasi bu g‘oyaga mantiqiy asos berdi. Monteske hokimiyatni faqat hokimiyat to‘xtata olishini yozgan edi[3], Medison esa tiyib turish tizimi hokimiyat tarmoqlarining har biri o‘z irodasiga ega bo‘lgandagina ishlashini ta’kidladi[4]. Vakillik organi ijro hokimiyatining bosimiga bardosh bera olmasa, bu zanjir uziladi. Daxlsizlik aynan shuning uchun o‘ylab topilgan.

Lekin vaqt o‘tib, himoyaning boshqa tomoni ham ko‘rina boshladi. Qirol bosimidan saqlash uchun yaratilgan kafolat bugun butunlay boshqa vazifani bajarishi mumkin. Tasavvur qilaylik, tuman Kengashining deputati o‘z hududida huquqbuzarlik qildi. Uni javobgarlikka tortish kerakmi yoki yo‘qmi, buni uning o‘zi

[1] Chafetz J. Democracy’s Privileged Few: Legislative Privilege and Democratic

Norms in the British and American Constitutions. – New Haven: Yale University Press, 2007; European Commission for Democracy through Law (Venice Commission). Report on the Scope and Lifting of Parliamentary Immunities (CDL-AD(2014)011). – Strasbourg, 2014.

[2] Bill of Rights 1689 (England), art. 9.

[3] Montesquieu Ch. De l'esprit des lois. – Genève, 1748. – Livre XI, chap. IV, VI.

[4] Hamilton A., Madison J., Jay J. The Federalist Papers. – New York, 1787–1788. – No. 47, 51.

bilan yonma-yon o'tirib ovoz beradigan hamkasblari hal qiladi. Konstitutsiyada hech kim qonundan ustun emasligi yozilgan[5], shunday ekan, bunday tartib tenglik tamoyili bilan qanday chiqishadi? Maqolaning asosiy savoli shu.

O'zbekistonda bu masala so'nggi paytda yana ham keskinlashdi. Mahalliy Kengashlar deputatlarining daxlsizligi "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlarining maqomi to'g'risida"gi Qonun va Jinoyat-protsessual kodeksi bilan tartibga solinadi[6], 2026-yil oktabrda esa daxlsizlik va immunitetga ega shaxslar uchun yagona tartib belgilovchi yangi qonun qabul qilindi[7]. Yangi qonunning bir jihati alohida diqqatga sazovor: u siyosiy immunitet bilan protsessual daxlsizlikni qonunchilik darajasida ikki alohida narsa sifatida ajratdi. Shunga qaramay, daxlsizlik qayerda tugashi va uni yechish qanday mezonlar bilan amalga oshirilishi haqidagi savollar hamon javobsiz.

Ushbu maqolada biz quyidagi fikrni asoslashga harakat qilamiz. Siyosiy immunitet deputat mandatining mutlaq kafolati sifatida saqlanishi kerak. Protsessual daxlsizlikni esa bekor qilish shart emas, uni aniq va tor doirada qoldirish kifoya. Immunitetni yechish tartibi ham muddatli, asoslangan va tekshirib bo'ladigan bo'lishi lozim. Bunday yondashuv deputatning mustaqilligini ham, qonun oldida tenglikni ham saqlab qolishga urinadi. Maqolada avval ikki institutning farqini ko'rsatamiz, keyin O'zbekistondagi amaldagi tartib va uning amaliy xavflarini ko'rib chiqamiz, so'ngra xorijiy tajribani solishtirib, yakunda aniq takliflarga o'tamiz.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mavzu bo'yicha xorijiy adabiyot boy, ammo uning ko'pchiligi parlament imtiyozlarini umumiy tarzda ko'radi. J. Chafets Britaniya va AQSh konstitutsiyaviy tizimlarida parlament imtiyozlari demokratik me'yorlar bilan qanday munosabatda

[5] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil yangi tahrir). – https://lex.uz/docs/-6445145

[6] O‘zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlarining maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni, 11–12-moddalar. – https://lex.uz/m/acts/-114204; O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 221, 223, 239-moddalar. – https://lex.uz

[7] Kimlar daxlsizlik va immunitetga ega shaxslar hisoblanadi? // UzA. – 2026-yil 15-oktabr. – https://uza.uz/oz/posts/kimlar-daxlsizlik-va-immunitetga-ega-shaxslar-hisoblanadi_922649

bo‘lishini o‘rganib, bu imtiyozlarning mohiyati shaxsiy ustunlikda emas, vakillik organining mustaqilligini himoya qilishda ekanini ko‘rsatgan[8]. Britaniya parlament huquqining klassik manbasi hisoblangan “Erskine May” qo‘llanmasida hamda A. Bredli va K. Yuing darsligida parlament imtiyozi asosan so‘z erkinligi bilan chegaralanishi, deputatlarga nisbatan jinoyat qonuni esa umumiy tartibda qo‘llanishi bayon qilinadi[9]. M. Vayl hokimiyatlar bo‘linishi tarixini tahlil qilib, hokimiyat tarmoqlarining mustaqilligi hech qachon mutlaq bo‘lmaganini, amalda ishlagan modellar esa o‘zaro tiyib turishga tayanganini ko‘rsatgan[10].

Qiyosiy nuqtai nazardan eng muhim manba Venetsiya komissiyasining 2014-yilgi hisoboti bo‘lib, unda Yevropa Kengashi a’zo davlatlaridagi parlament immunitetlarining ko‘lami va ularni yechish tartibi umumlashtirilgan[11]. Hisobotning asosiy g‘oyalaridan biri shuki, siyosiy immunitet bilan protsessual daxlsizlikka bir xil o‘lchov bilan yondashib bo‘lmaydi: birinchisi keng, ikkinchisi tor talqin qilinadi. Yevropa Inson huquqlari sudi ham shu yo‘ldan boradi. “A. Birlashgan Qirollikka qarshi” ishida Sud parlament majlisidagi fikr uchun mutlaq imtiyozni Konventsiyaga zid emas deb topgan[12]; “Kordova Italiyaga qarshi” ishlarida deputat bayonotlari parlament faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmaganda immunitetning mutanosibligi masalasi hal qiluvchi ekanini ko‘rsatgan[13]; “Kart Turkiyaga qarshi” ishida esa Buyuk palata protsessual immunitetning qonuniy maqsadini tan olgan, biroq mutanosiblik mezoni o‘z kuchida qolishini ta’kidlagan[14]. Korrupsiyaga qarshi kurash nuqtai nazaridan BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi 30-moddasi ham muhim: u ishtirokchi davlatlardan mansabdor shaxslarning immuniteti bilan

[8] Chafetz J. Ko‘rsatilgan asar.

[9] Erskine May’s Treatise on the Law, Privileges, Proceedings and Usage of Parliament. – London: LexisNexis; Bradley A.W., Ewing K.D. Constitutional and Administrative Law. – London: Pearson Education.

[10] Vile M.J.C. Constitutionalism and the Separation of Powers. 2nd ed. – Indianapolis: Liberty Fund, 1998.

[11] Venice Commission. Ko‘rsatilgan hisobot.

[12] A. v. the United Kingdom, Application no. 35373/97, European Court of Human Rights, judgment of 17 December 2002.

[13] Cordova v. Italy (nos. 1 and 2), Applications nos. 40877/98 and 45649/99, European Court of Human Rights, judgment of 30 January 2003.

[14] Kart v. Turkey [GC], Application no. 8917/05, European Court of Human Rights, judgment of 3 December 2009.

korrupsion jinoyatlarni samarali tergov qilish imkoniyati o‘rtasida zarur muvozanatni topishni talab qiladi[15].

Milliy adabiyotda mavzu asosan deputat maqomi doirasida, umumiy tarzda yoritiladi. Protsessual daxlsizlik chegaralari va uni yechish mezonlariga bag‘ishlangan maxsus qiyosiy tadqiqotlar bizga ma’lum emas. Shu sababli tahlilimiz amaldagi qonunchilikka hamda Toshkent davlat yuridik universitetida tayyorlangan tahliliy materialga tayanadi[16]. Ishda formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, tizimli va funksional usullardan foydalandik. Xorijiy davlatlarning hukumat shakli va huquq tizimi turlicha bo‘lgani uchun ularni mexanik tarzda emas, daxlsizlikka yondashuv turi bo‘yicha guruhlab taqqosladik.

**1. IKKI INSTITUT: NIMA HIMOYA QILINADI?**

Daxlsizlik haqidagi bahslarning ko‘pi ikki tushunchaning aralashib ketishidan chiqadi. Birinchisi siyosiy immunitet, doktrinada uni non-liability yoki indemnitet deb ham yuritishadi. U deputatning majlisda aytgan fikri, bergan ovozi va mandat bilan bog‘liq boshqa harakatlari uchun hech qachon, vakolat muddati tugagandan keyin ham javobgarlikka tortilmasligini bildiradi. Ikkinchisi protsessual daxlsizlik (inviolability) bo‘lib, deputatni jinoiy yoki ma’muriy javobgarlikka tortish, ushlab turish, qamoqqa olish yoki tintuv qilish uchun tegishli organning roziligi talab qilinishini bildiradi[17].

Bu ikki institutning mantig‘i bir xil emas. Deputatning ishi so‘zlash va ovoz berishdan iborat. Agar shu uchun javobgarlik xavfi bo‘lsa, mandatning o‘zi ma’nosini yo‘qotadi, siyosiy immunitetning mutlaq bo‘lishi shundan. Protsessual daxlsizlik esa boshqa narsa haqida: u deputat nima deganiga emas, uni kim, qanday va qachon qamoqqa olishi mumkinligiga tegadi. Bu yerda deputat jinoyat qildimi-yo‘qmi degan savoldan ko‘ra, ta’qib maqsadi masalasi muhimroq. Huquqni muhofaza qiluvchi organ noqulay ovoz bergan deputatni jinoiy ish bilan “jim qilib”

[15] Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (2003), 30-modda, 2-band.

[16] Deputatning daxlsizlik huquqi va deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish tartibini takomillashtirish yuzasidan: Toshkent davlat yuridik universiteti tahliliy materiali. – Toshkent (nashr etilmagan).

[17] Venice Commission. Ko‘rsatilgan hisobot; TDYU tahliliy materiali.

qo‘yishi mumkinmi? Himoya shu xavfga qarshi qurilgan. Ammo xavf har jinoyatda bir xil emas: jinoyat ustida qo‘lga tushgan yoki jiddiy korrupsion jinoyatda gumon qilinayotgan deputatga nisbatan siyosiy ta’qib ehtimoli, odatda, ancha past bo‘ladi. Venetsiya komissiyasi siyosiy immunitetni keng, protsessual daxlsizlikni esa tor talqin qilishni tavsiya etishi shundan[18]. Biz bu yondashuvni funksional deb ataymiz: daxlsizlik faqat vakillik organining mustaqil ishlashi uchun zarur bo‘lgan doirada saqlanadi, undan tashqarida umumiy javobgarlik qoidalari ishlaydi. Chafetsning tahlili ham shu tomonga ishora qiladi: imtiyoz vakilning shaxsiy manfaati uchun emas, vakillik institutining ishlashi uchun mavjud[19].

## 2. O‘ZBEKISTONDA AMALDAGI TARTIB

Mahalliy Kengashlar deputatlari uchun tartib ancha batafsil yozilgan. Qonunning 11-moddasiga ko‘ra, deputat vakolat muddati davomida daxlsizlikka ega: uni tegishli Kengashning roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortib, ushlab turib, qamoqqa olib yoki sud tartibida beriladigan ma’muriy jazoga tortib bo‘lmaydi. Shu bilan birga deputat majlisda bildirgan fikri va bergan ovozi uchun, mandatni amalga oshirish bilan bog‘liq boshqa harakatlari uchun ham, vakolat tugagandan keyin ham javobgar emas. Faqat haqorat, tuhmat va qonunda javobgarlik nazarda tutilgan boshqa qonunbuzarliklar bundan mustasno[20]. Demak, qonun siyosiy immunitetni ham, protsessual daxlsizlikni ham mustahkamlagan, birinchisiga esa ma’lum istisnolar kiritgan.

Immunitetni yechish tartibi 12-moddada berilgan. Deputatni daxlsizlikdan mahrum qilish masalasi prokurorning taqdimnomasi bo‘yicha Kengash tomonidan o‘n kun ichida hal etiladi. Quyi prokuror kiritgan taqdimnomani yuqori turuvchi prokuror chaqirtirib olishi mumkin. Kengash rozilik bermasa, bu deputatga nisbatan jinoyat ishini yoki ma’muriy huquqbuzarlik haqidagi ishni yuritishni istisno etadi va bunday ishni tugatishga asos bo‘ladi[21]. Jinoyat-protsessual kodeksi ham shu mantiqni davom ettiradi. 223-moddada deputatni ushlab turish va huquqni muhofaza qiluvchi organga olib kelish mumkin emasligi belgilangan (221-moddaning birinchi qismidagi,

[18] Venice Commission. Ko‘rsatilgan hisobot.

[19] Chafetz J. Ko‘rsatilgan asar.

[20] “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlarining maqomi to‘g‘risida”gi Qonun, 11–12-moddalar.

ya’ni jinoyat ustida yoki uni sodir etgandan keyin bevosita qo‘lga tushish holati bundan mustasno), 239-moddada qamoq yoki uy qamog‘i Kengash roziligi bilan qo‘llanishi aytilgan[22].

2026-yil oktabrdagi qonun bu manzarani kengaytirdi. Ommaviy axborot manbalarida yozilishicha, u daxlsizlik va immunitetga ega shaxslar doirasini hamda ularga nisbatan ish yuritish tartibini belgilaydi. Parlament a’zolari ovoz berish va fikr bildirish uchun immunitetga ega bo‘ladi. Daxlsizlikka ega shaxsni ushlab turish mumkin emas, faqat jinoyat ustida qo‘lga tushgan holatda uch soatgacha ushlash bundan mustasno. Jinoiy javobgarlikka tortish uchun tegishli palata roziligi kerak, daxlsizlik talablari buzilib olingan dalillar nomaqbul hisoblanadi, ma’muriy javobgarlik esa Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning yangi bobi bo‘yicha amalga oshiriladi[23]. Rasmiy matnni to‘liq o‘rganish kerak, lekin bu manbalarning o‘zi ham narsani ko‘rsatadi: qonun chiqaruvchi siyosiy immunitetni protsessual daxlsizlikdan ajrata boshladi. Bizningcha, endi navbat ikkinchi qadamda, ya’ni protsessual daxlsizlik chegarasini va uni yechish mezonlarini aniqlashda.

**3. QALQON PANOHGA AYLANGANDA: AMALIY XAVFLAR**

Daxlsizlikning xavfi odatda mavhum gapirib o‘tiladi. Biz uni aniqroq ko‘rsatmoqchimiz. Rasmiy statistika ochiq e’lon qilinmagani uchun bu tahlil ko‘proq mantiqiy xarakterga ega va TDYU tahliliy materialida sanab o‘tilgan beshta muammoga tayanadi[24].

---

[21] “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlarining maqomi to‘g‘risida”gi Qonun, 11–12-moddalar.

[22] O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.

[23] UzA, 2026-yil 15-oktabr; Daxlsizlik huquqini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilandi // Kun.uz. – 2026-yil 15-oktabr. – https://kun.uz/news/2026/10/15/daxlsizlik-huquqini-buzganlik-uchun-jinoiy-javobgarlik-belgilandi

[24] TDYU tahliliy materiali.

Birinchisi tenglikka tegadi. Kengash rozilik bermasa va prokuror yuqori organga murojaat qilmasa, deputat javobgarlikka tortilmaydi yoki ish cho‘ziladi[25]. Qonun matni bu oqibatni yanada qattiqlashtiradi, chunki rozilikning rad etilishi ishni yuritishni istisno etadi[26]. Oddiy fuqaro uchun sud hal qiladigan masalani deputat uchun uning hamkasblari hal qiladi.

Ikkinchisi manfaatlar to‘qnashuvi. Mahalliy Kengash deputati o‘z hududida kundalik

muloqotda bo‘ladigan odamlar orasida yashaydi, uning taqdirini hal qiladiganlar esa ko‘pincha o‘sha tanish-bilishlar doirasidan chiqadi. Bunda immunitet himoya vositasidan ko‘ra “qalqon”ga aylanishi mumkin[27]. Bunga yaqin uchinchi xavf vakillik organining obro‘siga tegishli. Kengash o‘z a’zosini himoya qilsa yoki masalani atayin cho‘zsa, odamlar uni faqat o‘zini himoya qiladigan yopiq tizim deb qabul qila boshlaydi[28].

To‘rtinchisi biroz nozikroq. Deputat o‘zini himoyalangan his qilsa, vakolatni suiiste’mol qilishga, korrupsiyaga yoki bosim o‘tkazishga moyillik oshishi mumkin: u Kengash ruxsatisiz unga nisbatan hech qanday ehtiyot chorasi qo‘llanmasligini va tergov boshlanmasligini biladi[29]. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi aynan shu holatga e’tibor qaratadi: immunitet korrupsion jinoyatlarni samarali tergov qilishga to‘sqinlik qilmasligi kerak[30]. Beshinchisi vaqt bilan bog‘liq. Rozilik berilmasa, javobgarlik kechikadi, javobgarlikka tortish muddatlari o‘tib ketishi, dalillar yo‘qolishi mumkin[31]. Bu beshta muammo alohida-alohida emas, bir-biriga bog‘liq. Birinchisi tenglikni buzadi, ikkinchisi va to‘rtinchisi bu buzilishni suiiste’molga aylantiradi, uchinchisi va beshinchisi esa oqibatlarni jamiyatga yetkazadi.

[25] TDYU tahliliy materiali.

[26] “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlarining maqomi to‘g‘risida”gi Qonun, 11–12-moddalar.

[27] TDYU tahliliy materiali.

[28] TDYU tahliliy materiali.

[29] TDYU tahliliy materiali.

[30] BMT Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, 30-modda.

[31] TDYU tahliliy materiali.

## 4. XORIJIY TAJRIBA: IMMUNITET SAQLANADI, DAXLSIZLIK QISQARADI

Jahon tajribasiga qarasak, mutlaq protsessual daxlsizlik bugun kam mamlakatda uchraydi. Quyidagi jadvalda tanlangan davlatlarning yondashuvi umumlashtirilgan.

| **Davlat** | **Siyosiy immunitet** | **Protsessual daxlsizlik chegarasi** |
|---|---|---|
| Niderlandiya[32] | Bor | Yo‘q: jinoyat sodir etsa, boshqalar kabi javobgar |

| | | |
|---|---|---|
| Norvegiya[33] | Bor | Majlisga borish va majlis vaqtida ushlashdan himoya; majlisdan tashqari va jinoyat ustida qo‘lga tushish — rozilik shart emas |
| Irlandiya[34] · AQSh[35] | Bor | Majlis vaqtida va yo‘lda ushlashdan himoya; xiyonat, og‘ir jinoyat va jamoat tartibini buzish bundan mustasno |
| Portugaliya[36] | Bor | Uch yildan ortiq jazoli jinoyatlarda immunitetni yechish majburiy; boshqalarida rozilik talab etiladi |
| Serbiya[37] | Bor | Besh yildan ortiq jazoli jinoyatda rozilik ham talab etilmay hibsga olinishi mumkin |
| Fransiya[38] · Italiya[39] | Bor | Jinoiy ish qo‘zg‘atish roziliksiz; rozilik ozodlikni cheklovchi choralar uchun |
| Buyuk Britaniya[40] | Bor | Jinoiy ishlar bo‘yicha alohida daxlsizlik yo‘q |
| Germaniya[41] | Bor | Immunitet saqlangan; parlament amalda tergovga umumiy rozilik berish yo‘lidan boradi |

Jadvalda uchta qonuniyat ko‘rinadi. Birinchisi, siyosiy immunitet deyarli hamma joyda saqlangan. Niderlandiyada faqat shu institut amal qiladi[42], Britaniyada

[32] Grondwet voor het Koninkrijk der Nederlanden (Niderlandiya Qirolligi Konstitutsiyasi), art. 71.

[33] Kongeriket Norges Grunnlov (Norvegiya Qirolligi Konstitutsiyasi), § 66.

[34] Bunreacht na hÉireann (Irlandiya Konstitutsiyasi), Art. 15.13.

[35] Constitution of the United States, Art. I, § 6, cl. 1.

[36] Constituição da República Portuguesa (Portugaliya Respublikasi Konstitutsiyasi), art. 157.

[37] Ustav Republike Srbije (Serbiya Respublikasi Konstitutsiyasi), čl. 103.

[38] Constitution de la République française (1958), art. 26.

[39] Costituzione della Repubblica Italiana (1947), art. 68 (Legge costituzionale n. 3 del 29 ottobre 1993 tahriri).

[40] Bill of Rights 1689, art. 9; Erskine May’s Treatise. Ko‘rsatilgan asar.

[41] Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland (1949), Art. 46.

[42] Niderlandiya Konstitutsiyasi, 71-modda.

parlament imtiyozi so‘z erkinligi bilan chegaralanadi[43]. Ikkinchisi, protsessual daxlsizlik saqlangan joyda ham u asosan ozodlikni cheklovchi choralarga taalluqli: Fransiya va Italiya jinoiy ish qo‘zg‘atish uchun parlament roziligini talab qilmaydi, rozilik ushlash, qamoq va shunga o‘xshash choralar uchun qoladi[44]. Uchinchisi, jinoyatning og‘irligi va xarakteri hal qiluvchi mezon bo‘lib chiqadi. Jinoyat ustida qo‘lga tushish, og‘ir yoki korrupsion jinoyatlar ko‘p tizimlarda daxlsizlik doirasidan chiqarilgan[45].

Albatta, bu tajribani O‘zbekistonga bevosita ko‘chirib bo‘lmaydi. Bizningcha, Niderlandiya yoki Norvegiya kabi mamlakatlarda sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ishonch an’anasi daxlsizlikka bo‘lgan ehtiyojni kamaytirgan bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston sharoitida esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bosimidan himoya zarurati hamon jiddiy muhokama qilinadigan masala. Shu sababli biz daxlsizlikni butunlay bekor qilishni emas, differensiatsiya qilishni taklif etamiz.

**5. ISLOH YO‘NALISHLARI**

Yuqoridagi tahlildan beshta yo‘nalish kelib chiqadi.

Avvalo, siyosiy immunitet saqlanishi va uning mandat bilan bog‘liqligi aniq ko‘rsatilishi kerak. Mahalliy Kengashlar to‘g‘risidagi qonun haqorat va tuhmatni istisno qilgani bu borada to‘g‘ri yo‘l: mandatdan tashqari, shaxsiy huquqbuzarlik bo‘lgan harakatlar mutlaq immunitet bilan qoplanmaydi. Yevropa sudi amaliyoti ham aynan shu chegaraga qaraydi[46].

Ikkinchidan, protsessual daxlsizlik doirasi qisqarishi kerak. Jinoyat ustida qo‘lga tushish JPKda allaqachon istisno qilingan[47]. Unga og‘ir va korrupsion jinoyatlarni qo‘shish mantiqiy qadam bo‘lardi. Shuningdek, jinoiy ish qo‘zg‘atish va tergov harakatlari bir narsa, ozodlikni cheklovchi choralar boshqa narsa:

---

[43] Bill of Rights 1689, art. 9; Erskine May’s Treatise. Ko‘rsatilgan asar.

[44] Constitution française, art. 26; Costituzione italiana, art. 68.

[45] Norvegiya Konstitutsiyasi, 66-modda; Portugaliya Konstitutsiyasi, 157-modda; Serbiya Konstitutsiyasi, 103-modda; Irlandiya Konstitutsiyasi, 15.13-modda; U.S. Constitution, Art. I, § 6.

[46] “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlarining maqomi to‘g‘risida”gi Qonun, 11–12-moddalar; Cordova v. Italy (2003).

[47] O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.

roziliksiz tergov Fransiya va Italiya tajribasida ishlab turibdi[48]. Oddiy ma'muriy huquqbuzarliklar uchun Kengash roziligini talab qilish zarurati ham qayta ko'rib chiqilishi mumkin, chunki jarima solinishi bilan deputatlik mandatiga zarar yetishi ehtimoli deyarli yo'q.

Uchinchidan, yechish tartibi aniq mezonlarga tayanishi kerak. O'n kunlik muddat yaxshi, lekin qaror qanday asosda chiqarilishi qonunda ko'rsatilmagan. Biz qaror asoslantirilishini, deputatga o'z fikrini aytish imkoniyati berilishini va qaror ta'qib maqsadi bor-yo'qligi (fumus persecutionis) mezoni bo'yicha baholanishini taklif qilamiz. Bunday mezon qiyosiy amaliyotda immunitetni yechish masalasida yo'l-yo'riq sifatida ishlatiladi[49]. Quyi prokuror taqdimnomasini yuqori prokuror chaqirtirib olish tartibi ham aniq qoidalarga solinishi, qaytarib olish sabablari ko'rsatilishi zarur[50].

To'rtinchidan, rozilikning rad etilishi ishni tugatmasligi kerak. Amaldagi qoidaga ko'ra, rad etish ishni yuritishni istisno qiladi, ya'ni deputat amalda javobgarlikdan butunlay chetda qoladi[51]. Bunday natija tenglik tamoyiliga mos kelmaydi va korrupsion xavfni oshiradi. Bizning taklifimiz oddiy: rad etilsa, ish to'xtatib turiladi, javobgarlikka tortish muddatlarining o'tishi deputatlik vakolati tugaguncha to'xtatiladi, vakolat tugagach esa ish davom ettiriladi. Shunda himoya vaqtinchalik bo'ladi, adolat esa kechikadi, lekin yo'qolmaydi.

Beshinchidan, Kengash qaroriga nisbatan sud nazorati va yagona tamoyillar zarur. Kengash qarori masalani yakunlovchi qaror bo'lib qolmasligi, uning qonuniyligi sud yoki boshqa mustaqil organ tomonidan tekshirilishi mumkinligi mutanosiblik talabiga ham mos keladi[52]. Shu bilan birga mahalliy Kengash deputatlari, Oliy Majlis deputatlari va senatorlar uchun daxlsizlikning asosiy tamoyillari yagona konstitutsiyaviy mantiqqa tayanishi kerak. 2026-yilgi qonun bu

---

48 Constitution française, art. 26; Costituzione italiana, art. 68.

49 Venice Commission. Ko'rsatilgan hisobot.

50 "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlarining maqomi to'g'risida"gi Qonun, 11–12-moddalar.

51 "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlarining maqomi to'g'risida"gi Qonun, 11–12-moddalar.

52 Kart v. Turkey (2009).

yo'lda birinchi qadam bo'lishi mumkin, ammo tafsilotlar mahalliy qonunchilikda hali moslashtirilmagan[53].

Qarshi fikr ham bor, uni jiddiy qabul qilish kerak. Daxlsizlik tarafdorlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar deputatni noqulay faoliyati uchun ta’qib qilishi mumkinligini eslatadi va rozilik talabini shu xavfga qarshi to‘siq deb biladi. Shuning uchun biz daxlsizlikni to‘liq bekor qilishni emas, uni tor doirada saqlashni, yechish tartibini esa mezonlar va sud nazorati bilan to‘ldirishni taklif qilamiz. Ta’qibdan himoya saqlanadi, faqat u javobgarlikdan himoyaga aylanib qolmasligi ta’minlanadi.

**XULOSA**

Deputat daxlsizligi masalasida ikki chetga ketmaslik kerak. Daxlsizlikni imtiyoz deb butunlay bekor qilish vakillik organining mustaqilligini zaiflashtiradi. Uni chegarasiz saqlash esa qonun oldida tenglikka zarba beradi. Tahlilimiz shuni ko‘rsatdiki, jahon tajribasi o‘rta yo‘lni tanlagan: siyosiy immunitet saqlanadi, protsessual daxlsizlik esa jinoyat ustida qo‘lga tushish, og‘ir va korrupsion jinoyatlar hamda ozodlikni cheklamaydigan harakatlar bo‘yicha qisqartiriladi.

O‘zbekiston uchun bu bir necha narsani anglatadi. Siyosiy immunitetni mandat bilan aniq bog‘lash kerak. Protsessual daxlsizlikni ozodlikni cheklovchi choralar va jinoyat xarakteri bo‘yicha farqlash lozim. Immunitetni yechish muddatga, asoslangan qarorga, deputatni eshitishga va ta’qib maqsadi mezoniga tayanishi kerak. Rozilik rad etilganda ishni tugatmasdan to‘xtatib, javobgarlik muddatlarini to‘xtatib turish zarur. Markaziy va mahalliy vakillik organlari uchun esa yagona tamoyillar kerak. Bu takliflar amalga oshsa, vakillik organlarining obro‘si ortadi, suiiste’mol va korrupsiya xavfi kamayadi, qonun ustuvorligi mustahkamlanadi. Ularni amaliyotda sinab ko‘rish va rasmiy statistika bilan tekshirish keyingi tadqiqotlarning vazifasi bo‘lib qoladi.

[53] UzA, 2026-yil 15-oktabr.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil yangi tahrir). – https://lex.uz/docs/-6445145
2. O‘zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlarining maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni, 11–12-moddalar. – https://lex.uz/m/acts/-114204
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 221, 223, 239-moddalar. – https://lex.uz
4. Kimlar daxlsizlik va immunitetga ega shaxslar hisoblanadi? // UzA. – 2026-yil 15-oktabr. – https://uza.uz/oz/posts/kimlar-daxlsizlik-va-immunitetga-ega-shaxslar-hisoblanadi_922649
5. Daxlsizlik huquqini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilandi // Kun.uz. –

2026-yil 15-oktabr. – https://kun.uz/news/2026/10/15/daxlsizlik-huquqini-buzganlik-uchun-jinoiy-javobgarlik-belgilandi
6. Deputatning daxlsizlik huquqi va deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish tartibini takomillashtirish yuzasidan: Toshkent davlat yuridik universiteti tahliliy materiali. – Toshkent (nashr etilmagan).
7. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (2003), 30-modda, 2-band.
8. Grondwet voor het Koninkrijk der Nederlanden (Niderlandiya Qirolligi Konstitutsiyasi), art. 71.
9. Kongeriket Norges Grunnlov (Norvegiya Qirolligi Konstitutsiyasi), § 66.
10. Constituição da República Portuguesa (Portugaliya Respublikasi Konstitutsiyasi), art. 157.
11. Ustav Republike Srbije (Serbiya Respublikasi Konstitutsiyasi), čl. 103.
12. Bunreacht na hÉireann (Irlandiya Konstitutsiyasi), Art. 15.13.
13. Constitution of the United States, Art. I, § 6, cl. 1.
14. Constitution de la République française (1958), art. 26.
15. Costituzione della Repubblica Italiana (1947), art. 68 (Legge costituzionale n. 3 del 29
ottobre 1993 tahriri).
16. Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland (1949), Art. 46.
17. Bill of Rights 1689 (England), art. 9.
18. A. v. the United Kingdom, Application no. 35373/97, European Court of Human Rights, judgment of 17 December 2002.
19. Cordova v. Italy (nos. 1 and 2), Applications nos. 40877/98 and 45649/99, European Court of Human Rights, judgment of 30 January 2003.
20. Kart v. Turkey [GC], Application no. 8917/05, European Court of Human Rights, judgment of 3 December 2009.
21. European Commission for Democracy through Law (Venice Commission). Report on the Scope and Lifting of Parliamentary Immunities (CDL-AD(2014)011). – Strasbourg, 2014.
22. Montesquieu Ch. De l'esprit des lois. – Genève, 1748. – Livre XI, chap. IV, VI.
23. Hamilton A., Madison J., Jay J. The Federalist Papers. – New York, 1787–1788. – No. 47, 51.
24. Chafetz J. Democracy's Privileged Few: Legislative Privilege and Democratic Norms in the British and American Constitutions. – New Haven: Yale University Press, 2007.

25. Erskine May’s Treatise on the Law, Privileges, Proceedings and Usage of Parliament. – London: LexisNexis.
26. Bradley A.W., Ewing K.D. Constitutional and Administrative Law. – London: Pearson Education.
27. Vile M.J.C. Constitutionalism and the Separation of Powers. 2nd ed. – Indianapolis: Liberty Fund, 1998.